



CRITERIA FOR ASSESSING THE BEST INTERESTS OF THE CHILD IN ADOPTION PROCEEDINGS AND JUDICIAL PRACTICE

Rakhimbayeva Munira Azad qizi

Master's Student, Tashkent State University of Law

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20428098>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

KEYWORDS

Adoption, child interests, best interests of the child principle, judicial practice, family law, Convention on the Rights of the Child, negative filters, psychological competence, annulment of adoption, Family Code of the Republic of Uzbekistan.

ABSTRACT

This article examines the legal criteria for assessing the interests of the child in adoption proceedings in accordance with the legislative norms of the Republic of Uzbekistan. The article analyses the three-dimensional nature of the "best interests of the child" principle — its operation as a substantive legal norm, a principle of legal interpretation, and a procedural rule. Personal criteria relating to the child (age, health, wishes, and connection with the biological family) as well as requirements imposed on prospective adoptive parents (a system of affirmative conditions and "negative filters") are studied. Within the framework of Resolution No. 16 of 2011 of the Plenary Session of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, the procedural characteristics of judicial proceedings in adoption cases are analysed — jurisdiction, the range of participants, closed court hearings, and grounds for the annulment of adoption. The study provides a scholarly justification for the necessity of incorporating the criterion of psychological readiness into the assessment system, as well as eliminating the legal gap concerning the preservation of the child's connection with the biological family.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ИНТЕРЕСОВ РЕБЁНКА ПРИ УСЫНОВЛЕНИИ (УДОЧЕРЕНИИ) И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА

Рахимбаева Мунира Азад қизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20428098>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

ABSTRACT

В настоящей статье исследованы правовые критерии оценки интересов ребёнка в процессе усыновления (удочерения) в соответствии с нормами законодательства Республики Узбекистан. В статье проанализирована трёхаспектная сущность принципа «наилучших интересов ребёнка» — его



KEYWORDS

Усыновление, интересы ребёнка, принцип наилучших интересов ребёнка, судебная практика, семейное законодательство, Конвенция о правах ребёнка, негативные фильтры, психологическая компетентность, отмена усыновления, Семейный кодекс Республики Узбекистан.

воздействие в качестве нормы материального права, принципа толкования права и процессуального правила. Исследованы личностные критерии, относящиеся к ребёнку (возраст, состояние здоровья, желания и связь с биологической семьёй), а также требования, предъявляемые к кандидатам в усыновители (система позитивных условий и «негативных фильтров»). В рамках Постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан № 16 от 2011 года проанализированы процессуальные особенности судопроизводства по делам об усыновлении — подсудность, круг участников, закрытое судебное заседание и основания отмены усыновления. Исследование научно обосновывает необходимость включения критерия психологической готовности в систему оценки, а также устранения правового пробела в вопросе сохранения связи ребёнка с биологической семьёй.

**FARZANDLIKKA OLI SHDA BOLA MANFAATLARINI BAHOLASH
MEZONLARI VA SUD AMALIYOTI**

Raximbayeva Munira Azad qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20428098>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

KEYWORDS

Farzandlikka olish, bola manfaatlarini, bolaning eng ustun manfaatlarini tamoyili, sud amaliyoti, oila qonunchiligi, Bola huquqlari konvensiyasi, manfiy filtrlar, psixologik kompetentlik, farzandlikka olishni bekor qilish, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalariga asosan farzandlikka olish jarayonida bola manfaatlarini baholashning huquqiy mezonlari tadqiq etilgan. Maqolada "bolaning eng ustun manfaatlarini" tamoyilining uch qirrali mohiyati — moddiy huquq, huquqni sharhlash tamoyili va protsessual qoida sifatidagi ta'siri — tahlil qilingan. Bolaga oid shaxsiy mezonlar (yosh, sog'liq, istak va biologik oila bilan aloqa) hamda farzandlikka oluvchi nomzodga qo'yiladigan talablar (ijobiy shartlar va "manfiy filtrlar" tizimi) o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 16-sonli Qarori doirasida farzandlikka olish bo'yicha sud ish yuritishining protsessual xususiyatlari — sudlovga taalluqliligi, ishtirokchilar doirasi, yopiq sud majlisi va farzandlikka olishni bekor qilish asoslari — tahlil qilingan. Tadqiqot psixologik tayyorgarlik mezonini baholash tizimiga kiritish va bolaning biologik oila bilan aloqasini saqlash masalasidagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.



KIRISH

Farzandlikka olish – bu ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni munosib oilaviy muhit bilan ta'minlashning eng muhim huquqiy mexanizmlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida davlat va jamiyat yetim bolalar hamda ota-onasining vasiylikidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishni ta'minlash majburiyati aniq belgilangan.

Zamonaviy huquq nazariyasida farzandlikka olish jarayonining markazida “bolaning eng ustun manfaatlarini” tamoyili turadi. Bu tamoyil nafaqat xalqaro hujjatlarda – birinchi navbatda BMTning 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 3-moddasida, balki O'zbekistonning milliy qonunchiligida ham to'liq aks etgan. Biroq, bu tamoyilni amaliyotga tatbiq etish, uni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish va sud amaliyotida izchil qo'llash hali ham dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo'lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, O'zbekistonda amalga oshirilgan institutsional islohotlar – vasiylik va homiylik vakolatlarining Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga o'tkazilishi – farzandlikka olish jarayonini huquqiy jihatdan qayta baholashni talab etadi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yilgi 16-sonli Qarorida belgilangan sud amaliyotining amaliyotdagi samaradorligini o'rganish zaruriyati mavjud.

Ushbu maqolaning maqsadi – farzandlikka olish jarayonida bola manfaatlarini baholashning huquqiy mezonlarini nazariy jihatdan asoslab berish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi sud amaliyotini tahlil qilish va tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Qiyosiy-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining farzandlikka olishga oid qonunchiligi — Oila kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va Oliy sud Plenumining 16-sonli Qarori — xalqaro standartlar, xususan, BMT Bola huquqlari konvensiyasi qoidalari bilan taqqoslandi.

Tizimli tahlil: Bola manfaatlarini baholash mezonlari tizimiy yaxlitlik nuqtai nazaridan — xalqaro tamoyillar, milliy qonunchilik va sud amaliyoti kesimida — kompleks o'rganildi.

Ilmiy tahlil: M. Gresdal, A. Muntean, R. Ungureanu, M.M. Xayitov, D.I. Babajanova kabi olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalar va xalqaro konferensiyalar materiallari tahlil qilindi.

Solishtirma usul: Turli davlatlarning farzandlikka olishda bola manfaatlarini baholash tajribasi o'rganildi hamda O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida huquqiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TADVIQOT NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish jarayonida bola manfaatlarini huquqiy baholash bo'yicha



mavjud qonunchilik bazasi ayrim asosiy normalarni o'z ichiga olsa-da, amaliyotda qator muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari quyidagi yo'nalishlar asosida baholandi:

1. "Bolaning eng ustun manfaatlari" tamoyili zamonaviy xalqaro bolalar huquqining bosh prinsipi hisoblanadi. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida ushbu tamoyil quyidagicha mustahkamlangan: bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi.¹

Norvegialik huquqshunos olimlar M. Gresdal va uning hamkasblari bu tamoyilning uch qirrali mohiyatini ilmiy asoslab berganlar: u bir vaqtning o'zida moddiy huquq, huquqni sharhlash tamoyili va protsessual qoida sifatida namoyon bo'ladi.² Ushbu uch qirrali tahlil tamoyilning amaliyotdagi to'liq ta'sirini tushunish uchun metodologik jihatdan muhimdir.

Moddiy huquq sifatida bu tamoyil bolaning o'z manfaatlarini hisobga olishlarini talab qilish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Bola shunchaki himoya obyekti emas, balki o'zining huquqiy manfaatlariga ega bo'lgan mustaqil subyektdir. Huquqni sharhlash tamoyili sifatida esa bu tamoyil normalar o'rtasida ziddiyat bo'lgan yoki huquqiy bo'shliq mavjud bo'lgan hollarda, huquqni qo'llovchi organ bolaning

manfaatlariga ko'proq mos keladigan izohni tanlashi shart ekanligini bildiradi. Protsessual qoida sifatida u qaror qabul qiluvchi organga o'z qarorida bolaning manfaatlari qanday aniqlanganini aniq yozma ravishda bayon qilishni majbur etadi. Shunchaki "bolaning manfaatlaridan kelib chiqib" degan umumiy ibora bilan cheklanish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida davlat bolaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishi belgilangan. Shunday bo'lsa-da, ushbu tamoyilni amaliyotda to'g'ri tatbiq etish uchun uni baholashning aniq huquqiy mezonlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 151-moddasida farzandlikka olish "faqatgina voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va faqat ularning manfaatlarini ko'zlab yo'l qo'yiladi" deb aniq belgilab qo'yilgan. Bu norma bolaning manfaatlarini farzandlikka olishning asosiy maqsadi va chegaralovchi mezon sifatida belgilaydi.

Oila qonunchiligida farzandlikka olishning huquqiy oqibatlarini "huquqiy fiksiya" konsepsiyasi asosida tartibga solingan: farzandlikka olingan bolalar farzandlikka oluvchilarga nisbatan shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlar bo'yicha tug'ishgan qarindoshlarga to'liq tenglashtiriladi.³ Bu norma biologik aloqalarning yo'qligiga qaramay, yangi va to'laqonli oilaviy munosabatlar yaratishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

¹ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya: 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. – BMT hujjati.

² Gresdahl M., Fauske H., Storhaug A.S. Balancing child participation and protection in emergency cases: Ensuring the

child's best interests // Children and Youth Services Review. 2025. Vol. 172. P. 108259.

³ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi: 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan. – 165-modda.



Milliy huquqshunos olimlar ham ushbu masalarga alohida e'tibor qaratganlar. M.M. Xayitov "ota-onalik huquqi va majburiyatlari" tizimining farzandlikka olish orqali to'liq transformatsiyalanishini, ya'ni biologik ota-onadan farzandlikka oluvchiga to'liq va qaytarib bo'lmas tarzda o'tishini ko'rsatib bergan.⁴ D.I. Babajanova esa noqonuniy farzandlikka olish xatarlarini tahlil qilgan, xususan, 2017-2020-yillarda chaqaloq savdosi bilan bog'liq holatlarning 52 foizi moliyaviy manfaat olish maqsadida sodir etilganligini qayd etgan.⁵

Bu ma'lumotlar farzandlikka olish jarayonida bola manfaatlarini baholash mezonlarining qonun darajasida aniq mustahkamlanmaganligi tizimda sezilarli xatarlar mavjudligini ko'rsatadi.

2. Bola manfaatlarini baholashda eng avvalo bolaning individual holatiga oid bir qator shaxsiy mezonlarni hisobga olish zarur. Amaldagi qonunchilik va amaliyot tahlili asosida ushbu mezonlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi mezon – bolaning yoshi va rivojlanish darajasi. Bolaning yoshi nafaqat protsessual talablarni (masalan, 10 yoshdan katta bolaning roziligini olish majburiyati⁶) belgilaydi, balki oilaga moslashish imkoniyatlarini ham ko'p jihatdan aniqlab beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning muassasada o'tkazgan har uch oyi uning jismoniy va aqliy rivojlanishini bir oyga kechiktiradi.⁷ Bu ma'lumotlar asosida tizimda bolani

imkon qadar ilk yoshida oilaga joylashtirish tamoyilining amaliy jihatdan muhim ekanligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi mezon – bolaning sog'lig'i va maxsus ehtiyojlari. Maxsus tibbiy muolajaga, nogironlikka yoki rivojlanishidagi kechikishlarga ega bolalar uchun farzandlikka oluvchi oilaning ushbu ehtiyojlarni qondira olish imkoniyati muhim baholash mezoniga aylanadi. Bu yerda farzandlikka oluvchining moddiy imkoniyatlari bilan bir qatorda uning psixologik tayyorgarligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi mezon – bolaning istaklari va fikri. Qonunchilikda 10 yoshga to'lgan bolaning roziligini olish majburiy ekanligi belgilangan bo'lsa-da, bolaning fikrini hisobga olish tamoyili yoshi va yetuklik darajasiga qarab yanada keng qo'llanilishi lozim. BMT Bola huquqlari konvensiyasining 12-moddasi har bir bolaga o'z fikrlarini bildirish huquqini kafolatlaydi, bu esa milliy qonunchilikda ham yanada aniqroq aks ettirilishi kerak.

To'rtinchagi mezon – biologik oila bilan aloqalarni saqlash masalasi. Aka-uka va opa-singil bo'lgan bolalarni birga farzandlikka berish tamoyili ularning bir-biridan ajratilishining bolaga keltirishi mumkin bo'lgan hissiy zararni oldini olish nuqtai nazaridan asoslidir. O'zbekiston qonunchiligi bu masalani aniq tartibga solmaydi, bu esa huquqiy bo'shliq hisoblanadi.

⁴ Xayitov M.M. Ota-onalik huquqi va majburiyatlariga oid tushunchalarga yuridik tavsif: nazariya va amaliyot // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2021. 2(10/S). B. 30-37.

⁵ Бабажанова Д.И. Соотношение усыновления и суррогатного материнства в рамках отечественной и зарубежной фамелистики // Yurisprudensiya. 2021. №SI-1. B. 55-63.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi: 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan. – 155-modda.

⁷ Legrand J.C. Child care system reforms in Eastern and Central Europe and Central Asia: Why there is a need to focus on children below three years. Report of the UNICEF. 2014.



3. Oila qonunchiligi bo'yicha farzandlikka oluvchi nomzodga nisbatan qo'yiladigan talablarni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – umumiy ijobiy talablar (vakolatlilik, moddiy ta'minot, yashash sharoiti), ikkinchi guruh esa – qonuniy cheklovlar, ya'ni "manfiy filtrlar" tizimi.

"Manfiy filtrlar" tizimi quyidagi shaxslarni farzandlikka oluvchi bo'lishdan chetlatadi: ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar; muomalaga layoqatsiz yoki cheklangan shaxslar; oldingi vasiylik majburiyatlarini bajarmagan shaxslar; sobiq farzandlikka oluvchilar (agar oldingi farzandlikka olish bekor qilingan bo'lsa); jinoiy qoralangan shaxslar; hamda sog'lig'i holati bo'yicha ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaydigan shaxslar. Ushbu tizim profilaktik himoya mexanizmi sifatida muhim ahamiyatga ega.

4. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar farzandlikka olish muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida nomzodlarning psixologik kompetentligini ajratib ko'rsatadi. Ruminiyalik olimlar A. Muntyan va R. Ungureanu "bog'lanish nazariyasi"ni farzandlikka olish jarayoniga qo'llab, muhim xulosaga kelishgan: "hech bir bola farzandlikka oluvchilar oilasiga travmatik voqeani boshdan kechirmasdan kelmaydi".⁸

Bu tezis bola manfaatlarini baholash uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega. Agarda har bir farzandlikka olinayotgan bola – hatto

chaqaloqlikda tashlab ketilgan bo'lsa ham – "tashlandilik jarohati"ni boshdan kechirgan bo'lsa, farzandlikka oluvchi nomzodlar ushbu jarohatni anglab, unga to'g'ri munosabat bildira olishi kerak. Bu esa an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy mezonlardan tashqari psixologik tayyorgarlik mezonini ham baholash tizimiga kiritishni talab etadi.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, farzandlikka olingan o'smirlarning 50 foizi o'z ota-onalari bilan mustahkam va ishonchli bog'lanishni shakllantira olgan.⁹ Muvaffaqiyatning asosiy omili – ota-onalarning o'zlarining psixologik rolini qay darajada anglaganlari edi. Bu statistik ma'lumot farzandlikka oluvchilar uchun majburiy psixologik-pedagogik tayyorlov dasturini joriy etishning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

5. O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish bo'yicha sud amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 16-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqida"gi Qarori bilan tartibga solinadi. Bu hujjat sudlarga ushbu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda izchil va yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida chiqarilgan bo'lib, farzandlikka olish amaliyotining eng muhim yo'naltiruvchi hujjati hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan Plenum Qarorining 2-bandi sudlovga taalluqlilikning qat'iy ierarxik modelini o'rnatgan. Milliy farzandlikka olish (O'zbekiston fuqarolari ishtirokidagi)

⁸ Muntean A., Ungureanu R. Adoptions of children in Romania: applying attachment theory // Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 33. P. 6-10.

⁹ Muntean A., Ungureanu R. Adoptions of children in Romania: applying attachment theory // Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 33. P. 6-10.



ishlar tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ko'riladi, ariza esa farzandlikka olinayotgan bolaning yashash joyi yoki muassasasi joylashgan hududdagi sudga beriladi. Xalqaro farzandlikka olish (chet el fuqarolari yoki O'zbekistondan tashqarida doimiy yashovchi fuqarolar ishtirokidagi) ishlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida ko'rib chiqiladi.

Ushbu ierarxik farqlashning amaliy maqsadi – xalqaro farzandlikka olish ishlariga nisbatan kuchaytirilgan sud nazoratini ta'minlash, chunki bola mamlakatdan tashqariga chiqib ketgach, uning keyingi taqdirini nazorat qilish ancha qiyinlashadi. Bu yondashuv xalqaro huquq doktrinasidagi "bolani himoya qilish uchun davlatning kuchaytirilgan mas'uliyati" prinsipiga mos keladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan alohida ish yuritish tartibida ko'riladi.¹⁰ Bu tartibning asosiy farqi shundan iboratki, unda huquq to'g'risida nizo mavjud emas: ariza beruvchilar suddan yuridik fakti belgilashni va unga qonuniy kuch berishni so'raydilar. Shu sababli, sudning vazifasi ikki tomonning dalillarini taqqoslash emas, balki so'ralayotgan harakatning qonunga va bolaning manfaatlariga muvofiqligini tekshirishdan iborat.

Farzandlikka olish sirini ta'minlash maqsadida ushbu toifadagi barcha ishlar yopiq sud majlislarida ko'rib chiqilishi

shart ekanligini belgilaydi.¹¹ Bu norma Oila kodeksida mustahkamlangan farzandlikka olish sirini saqlash majburiyatining protsessual kafolati hisoblanadi.

Yopiq sud majlisining huquqiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu farzandlikka oluvchilar va bolaning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, bu bolani kelajakda ijtimoiy kamsitilishdan asraydi, ayniqsa kichik shaharchalar va qishloq joylarda jamoat nazoratining kuchli bo'lgan sharoitida. Uchinchidan, bu farzandlikka oluvchilarga protsess davomida tashqi bosimdan xoli holda o'z fikrini erkin bildirish imkonini beradi.

Farzandlikka olish bilan bog'liq ishlarni fuqarolik sudlarida ko'rib chiqishda farzandlikka oluvchilar (yoki ularning vakillari), vasiylik va homiylik organi ("Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi) vakili, hamda prokuror ishtiroki majburiy.¹² Har bir ishtirokchining o'ziga xos protsessual vazifasi mavjud: farzandlikka oluvchilar o'zlarining niyatlari jiddiyligini va bolani tarbiyalashga tayyor ekanliklarini shaxsan ko'rsatadilar; vasiylik organi vakili sudgacha bo'lgan bosqichda to'plangan materiallarni himoya qiladi; prokuror esa qonuniylik va bolaning manfaatlarining ustuvorligi ta'minlanishini nazorat qiladi.

Shu o'rinda, agarda farzandlikka olinayotgan bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa, sud uni bevosita majlisda so'roq qilishi va uning roziligini shaxsan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrda "Sudlar tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqida"gi 16-sonli Qarori, 3-bandi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrda "Sudlar tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi

qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqida"gi 16-sonli Qarori, 7-bandi

¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrda "Sudlar tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqida"gi 16-sonli Qarori, 6-bandi



eshitishi kerak. Bu jarayon bolaga qulay va bosimdan xoli muhitda, zarur bo'lsa pedagog yoki psixolog ishtirokida o'tkazilishi lozim. Ushbu mezon bolani passiv obyektidan o'z taqdiri hal bo'layotgan jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradigan muhim kafolatdir.

6. Farzandlikka olishni bekor qilish – bu farzandlikka olish natijasida vujudga kelgan huquqiy munosabatlarni sud tartibida tugatishni anglatuvchi favqulodda huquqiy chora. Oila qonunchiligida bekor qilishning asoslari aniq belgilangan: farzandlikka oluvchilarning ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish; bolaga nisbatan qattiq, zo'ravon munosabat; surunkali alkogolizm yoki giyohvandlik.

Qonun chiqaruvchi ushbu asoslarni to'liq va tugal ro'yxat shaklida bergan. Bu yondashuv bir tomondan huquqiy aniqlikni ta'minlasa-da, ikkinchi tomondan psixologik nomuvofiqlik kabi farzandlikka oluvchilarning bevosita aybiga bog'liq bo'lmagan holatlarda ham bola himoyasini ta'minlash muammosini yuzaga keltirishi mumkin.

Bekor qilishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi aniq belgilangan bo'lib, ular: bolaning ota-onasi (agar ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan bo'lsa), prokuror, vasiylik va homiylik organlari hamda o'n to'rt yoshga to'lgan bolaning o'zi. O'n to'rt yoshga to'lgan bolaga bekor qilishni talab qilish huquqining berilishi bolaning huquq subyektililigini mustahkamlaydigan muhim normativdir.

Oila qonunchiligiga ko'ra, bekor qilishning huquqiy oqibatlari farzandlikka olishning oqibatlariga teskaridir: farzandlikka olingan bola va farzandlikka oluvchilar o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar tugatiladi; bola biologik ota-onasiga qaytariladi yoki, agar bu bolaning manfaatlariga zid bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ixtiyoriga topshiriladi.

TAKLIF ETILAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish sohasida bola manfaatlarini huquqiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida quyidagi normativ-huquqiy takomillashtirish yo'llaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Bola manfaatlarini baholash mezonlarini qonun darajasida mustahkamlash

Amaldagi qonunchilik doirasida bola manfaatlarini baholash uchun umumiy tamoyillar belgilangan bo'lsa-da, ularning aniq va qonun darajasida mustahkamlangan mezonlari mavjud bo'lmaganligi uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Bolaning yoshi, sog'lig'i, istaklari va biologik oila bilan aloqasini saqlash masalasini farzandlikka olishning huquqiy mezonlari sifatida Oila kodeksiga alohida modda shaklida kiritish.

- Bola manfaatlarini baholashda qo'llanadigan mezonlarni ro'yxatini rasman belgilash va sudlarga ushbu mezonlarni qarorida yozma ravishda asoslash majburiyatini yuklash.

- Bola fikrini hisobga olish tartibini yoshiga mos ravishda kengaytirish: 10



yoshdan katta bolalar uchun fikrini bildirishni protsessual majburiyat sifatida mustahkamlash.

2. Farzandlikka oluvchi nomzodlar uchun majburiy psixologik tayyorlov dasturini joriy etish

An'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy mezonlardan tashqari nomzodlarning psixologik kompetentligini baholash tizimini kuchaytirish zarur, jumladan:

- Farzandlikka oluvchi nomzodlar uchun majburiy psixologik-pedagogik tayyorlov dasturini (kamida 40 soatlik kurs) qonunchilikda belgilash.

- Tayyorlov dasturini muvaffaqiyatli o'tagan nomzodlarga maxsus sertifikat berish va ushbu sertifikatni farzandlikka olish uchun zaruriy hujjatlar ro'yxatiga kiritish.

- Farzandlikka olingan bolaning oilaga moslashish jarayonida psixologik yordam ko'rsatuvchi davlat xizmatini kuchaytirish.

3. Aka-uka va opa-singillarni birga joylashtirish tamoyilini qonunchilikda alohida belgilash

Hozirda O'zbekiston qonunchiligi birlashtirish tamoyilini aniq tartibga solmaydi. Quyidagilar taklif etiladi:

- Oila kodeksiga aka-uka va opa-singillarning biralikda farzandlikka olinishi ustuvor tamoyil sifatida kiritilishi lozimligini belgilash.

- Ular bir-biridan ajratiladigan holatlarda, sudning qarorida bu ajralishning bolaning manfaatlariga muvofiqligini alohida asoslab berish majburiyatini o'rnatish.

4. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslarini kengaytirish

Mavjud to'liq va tugal ro'yxat psixologik nomuvofiqlik kabi hollarda bola himoyasini ta'minlashda yetarli

bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun quyidagilar taklif etiladi:

- "Bolaning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishiga zarar yetkazadigan muhit" kabi keng qamrovli asosni bekor qilish asoslari ro'yxatiga qo'shish.

- Farzandlikka olish bo'yicha keyingi kuzatuv mexanizmini qonunchilikda belgilash va vasiylik organlari uchun majburiy nazorat tashrifi jadvalini joriy etish.

XULOSA

Umuman olganda, ushbu tadqiqot davomida farzandlikka olish jarayonida bola manfaatlarini baholashning huquqiy mezonlari hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi sud amaliyoti batafsil tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda xalqaro standartlar bilan taqqoslash orqali mamlakatimiz qonunchiligidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "bolaning eng ustun manfaatlari" tamoyili bir vaqtning o'zida moddiy huquq, huquqni sharhlash tamoyili va protsessual qoida sifatida namoyon bo'lib, farzandlikka olishning asosiy maqsadi va chegaralovchi mezon hisoblanadi. Biroq, mazkur mezonlar amaldagi qonunchilikda to'liq va aniq mustahkamlanmagan — bu esa tizimda huquqiy bo'shliqlarni vujudga keltirmoqda.

Sud amaliyoti nuqtai nazaridan Oliy sud Plenumining 2011-yilgi 16-sonli Qarori bir qator muhim kafolatlarni o'rnatgan: xalqaro farzandlikka olish ishlarida kuchaytirilgan sud nazorati, yopiq sud majlislari, prokuror va vasiylik



organining majburiy ishtiroki, 10 yoshga to'lgan bolaning fikrini bevosita sudda eshitish. Ushbu kafolatlar tizimi bolani passiv himoya obyektidan protsessning faol ishtirokchisiga aylantirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Tadqiqot quyidagi asosiy huquqiy muammolarni aniqlab berdi: bola manfaatlarini baholash mezonlari qonunchilikda yetarli darajada konkretlashtirilmagan; aka-uka va opa-singillarni birga farzandlikka berish masalasi qonunda tartibga solinmagan; farzandlikka oluvchi nomzodlar uchun

majburiy psixologik-pedagogik tayyorlov tizimi joriy etilmagan; bekor qilish asoslarining mavjud ro'yxati ba'zi hollarda bola himoyasini ta'minlashda yetarli bo'lmasligi mumkin.

Farzandlikka olish jarayonida "bolaning eng ustun manfaatlari" tamoyilini samarali tatbiq etish formal-yuridik mezonlardan tashqari psixologik, ijtimoiy va protsessual kafolatlarning uyg'un tizimini talab etadi. Bu tizimni takomillashtirish nafaqat ilmiy, balki dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

Используемая литература:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 8-maydagi O'RQ-837-sonli Konstitutsiyaviy Qonun bilan tasdiqlangan. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: 1998-yil 30-apreldagi O'RQ-607-I-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998. – № 5–6. – 143-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni: 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqida"gi qarori: 2011-yil 25-noyabrdagi 16-son. – Toshkent, 2011.
5. Бабажанова Д.И. Соотношение усыновления и суррогатного материнства в рамках отечественной и зарубежной фамилистики // Юриспруденция. – 2021. – № SI-1. – С. 55–63.
6. Xayitov M.M. Ota-onalik huquqi va majburiyatlariga oid tushunchalarga yuridik tavsif: nazariya va amaliyot // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2021. – № 2 (10/S). – B. 30–37.
7. Muntean A., Ungureanu R. Adoptions of children in Romania: applying attachment theory // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2012. – Vol. 33. – P. 6–10.
8. Legrand J.C. Child care system reforms in Eastern and Central Europe and Central Asia: Why there is a need to focus on children below three years. – New York: UNICEF, 2014. – 45 p.
9. Gresdahl M., Fauske H., Storhaug A.S. Balancing child participation and protection in emergency cases: Ensuring the child's best interests // Children and Youth Services Review. – 2025. – Vol. 172. – Art. 108259.